Tut odimchasining tutga zarari va unga qarshi kurash choralari

Olimjonov Saloxiddin Abdumalik o'g'li
AndQXAI, magistrant

Asronov Ergashali Karimberdiyevich
AndQXAI, katta o'qituvchi

Rustamova Dilshodaxon Shoyatbek qizi
AndQXAI, talaba

Annotatsiya: Mevali va manzarali daraxtlar bilan bir qatorda ipak qurtining yagona oziqasi hisoblangan tut daraxtlariga ham Tut odimchasi sezilarli darajada ziyon yetkazmoqda. Maqolada Tut odimchasining biologiyasi, tut daraxtiga keltiradigan zarari va unga qarshi kurash choralar bayon etilgan.

Аннотация: Помимо плодовых и декоративных деревьев тутовый жук также значительно повреждает тутовые деревья, являющиеся единственной пищей тутового шелкопряда. В статье описаны биология тутового долгоносика, вред, который он наносит тутовому дереву, и меры борьбы с ним.

Annotation: Mulberry trees, considered the only food of silkworms, are also significantly damaged by the Mulberry moth worm. The article describes the biology of the worm, the damage it causes to the mulberry tree, and measures to combat it.

Kalit so'zlar: Tut odimchasi, Apocheima Cenerarins Ersch, парадихлорбензол, insektisid, tangelfut, qurt yelimi .

Ключевые слова: Тутовый жук, Apocheima Cenerarins Ersch, парадихлорбензол, инсектицид, косуха, клей для червей..

Keywords: Mulberry beetle, Apocheima Cenerarins Ersch, paradichlorobenzene, insecticide, tangelfoot, worm glue.

Barcha odimchalarning kapalagi qanotlari 50 mm gacha bo‘lib, ular turlariga qarab har xil ranglarda bo‘ladi. Ayrim turlarining urg‘ochilarini qanotlari feuksiyalangan yoki yaxshi rivojlanmagan, qurtlar 65 mm gacha bo‘lib, ko‘krakda uch juft ko‘krak va ikki juft qorin oyoqlari bir juft qorinning VI segmentida, ikkinchi jufti IX segmentga joylashgan bo‘ladi. Ularning harakati odimlab yurganga o‘xshab harakat qiladi, shuning uchun ham bularni odimchalar deb atashadi. Odimchalar ichida tut odimchasi 20 dan ortiq turga kiruvchi mevali va o‘rmon daraxtlariga, ya’ni o‘rik, olma, nok, shaftoli, terak, tol va boshqa o‘simliklarga zarar keltirishi bilan bir qatorda, tut daraxtiga ham katta zarar keltiradi. Tut odimchasi tutning kurtaklari va barglarini yeb, butunlay yalang‘och qilib qo‘yishi mumkin. U tut ipak qurtiga nisbatan sakkiz barobar ko‘p tut bargini iste’mol qiladi (Abdullayev, 1991). Tut odimchasining erkagi yaxshi taraqqiy etgan kapalak bo‘lib, uning ikki juft qanoti, qanotlarida uchta qoramtir chiziqlari bo‘ladi. Urg‘ochilari esa qanosiz, qurtlari yashil rangda. Yetilgan 226 qurtlarning uzunligi 3-4 sm keladi. G‘umbaklarining uzunligi esa 1-2 sm, uning bosh tomonida do‘mboqchasi, orqa tomonida esa ayiim o‘simtalar bo‘ladi. Zararkunanda g‘umbaklik davrida daraxtlarning taglarida, 10 sm tuproq ostida qishlaydi. Erta bahorda harorat +14°C bo‘lganda u g‘umbak metamorfoza davrini o’tab, kapalakka aylanadi va erkak, urg‘ochi kapalaklar birikib, urg‘ochilari to‘p-to‘p qilib po‘stloq oralariga tuxumlarini qo‘yadi. Urg‘ochilari qo‘ygan tuxumlaming soni 400-800 tagacha bo‘lib, bu tuxumlardan 20-25 kundan keyin qurtlar chiqib, oldin qurt tutning kurtaklari bilan oziqlanib, keyin uning barglari bilan oziqlana boshlaydi. Qurtlari 30—40 kun oziqlanib aprel oyining oxirlarida, may oyining birinchi

yarmida daraxtlardan tuproqqa tushib g‘umbakka aylanadi va tuproq ichida qishlaydi. Tut odimchasi yoz davomida bir martagacha avlod beradi.

Qarshi kurash choralari. Qishlagan qurt g‘umbaklarini o‘ldirish uchun tut daraxtlari atrofi yaxshilab chopiladi. Tutzorlar kuzda haydalib bir-ikki marta yaxob suv beriladi. Bundan tashqari, odimcha qurtlar daraxtlarda ko‘p tarqalgan bo‘lsa, daraxt taglariga chodir tutib silkitib, odimcha qurtlar o‘ldiriladi. Urg‘ochi kapalaklar qo‘ygan tuxumlardan chiqqan qurtlar yuqoriga ko‘tarilmaslik uchun tut tanasiga «qurt yelimi» — tangelfut surtilgan belbog‘lar qo‘yilib, ularga qarshi kurashiladi. Tutning barglar paydo bo‘lganda ya’ni kurtakdan o‘sib chiqqanda kimyoviy usulda 0,1% li xlorofos suvdagi eritmasi purkaladi. Bunda bir gektar tutzorga 600—1000 litr eritma ishlatiladi. Eritma purkalgandan 14—15 kun o‘tgach, tut barglari bilan ipak qurti boqish tavsiya etiladi. Undan tashqari Tut odimchisi qurtini yo‘qotish uchun kompleks agrotexnik (tut daraxtlari tagini kuzda va bahorda yumshatish, kuzda tut kator oralarini chuqur haydash, begona o‘tlarni yo‘qotish) hamda kimyoviy kurash (tutning ko‘karib turgan kurtaklariga karbofos, Bi58, siperfos, sumialfa preparatlaridan birining 0,1—0,3% eritmasi purkash) choralari tavsiya etiladi. Tut ko‘chatzori va tutzorlari chuqur haydalishi, ko‘chatzorning har 1 m2 ga 35 g paradixlorbenzol yoki xloropikrin solinib, tuproqqa aralashtirilishi, yer chopganda uchragan qurt, qo‘ng‘iz va g‘umbaklarni terib olish yuli bilan yo‘qotilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.CH.I.Bekkamov, U.T.Daniyarov, N.K.Abdiqayumova, N.O.Rajabov. Ipakchilik va tutchilik. Darslik, 216-bet.

2. U.Abdullaev. Tutchilik. Darslik, Toshkent, 1991-yil. 378-bet.

3. E.K.Asronov, M.T.Zaynobiddinov Razmnojeniye tutovnika na otkrытoy mestnosti drevesnыmi cherenkami. “Bioraznoobraziye i ratsionalnoye ispolzovaniye prirodnыx resursov” Materialы II Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii s mejdunarodnым uchastiyem 21.06.2014g

4. Asronov E.,Tuychiyev J., Ermakova J.M., Xurmatov E. Vliyaniye srokov poseva tutovыx semyan na kachestvo seyantsev . Sovremennыe tendentsii razvitiya nauki i texnologiy sbornik nauchnыx trudov po materialam IV Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii 31.06 2015 g. Belgorod.

5. E.K.Asronov, M.B.Soliyeva, S.A.Saliyev, X.R Davlatov Xraneniye plodoovoщnoy produktsii. Severnыy morskoy put, vodnыe i suxoputnыe transportnыe koridorы kak osnova razvitiya sibiri i arktiki v XXI veke Sbornik dokladov XX yejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii 23 marta 2018g. Tom I Tyumen.

6. E.K.Asronov, M.B.Soliyeva, S.SHaripova, J.Alijonov. Lechebnыe svoystva tutovnika. AETERNA nauchnыy elektronыy jurnal Akademicheskaya Publitsistika № 05.2019 yil

7. Olimjonov C.O., Asronov E.K.Tut daraxtining bakterial kasalligi va uning oldini olish choralar Miasto Przyszłości, Vol. 30 (2022), 344–345.ISSN 2544-980X https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/938

8. Olimjonov C.O., Asronov E.K. Harm of the Comstock Worm to the Mulberry Tree and Measures to Combat it. Vol 01 (2023), ISSN: 2795-563X (E)

https://procedia.online/index.php/engineering/article/view/595